

## ISHONAMIZ VA TEKSHIRAMIZ



Atrofimizda odamlar ko'p. Ularning ba'zilarini yaxshi taniymiz va ularga ishonamiz. Ko'p vaqtimiz ular bilan birga o'tadi. Ular bizning quvonch va tashvishlarimizga sherik bo'lishadi. Nimadandir xafa bo'lsak, ularga aytamiz, sirlarimizni bo'lishamiz.



1

Bu – bizning oilamiz. Oila a'zolari bir-biriga g'amxo'rlik qiladi, qiyin vaziyatlarda qo'llab-quvvatlaydi, yordam berishga doim tayyor turadi. Mehr-oqibatli oila insonga kuch beradi. Ota-ona, bobo-buvilar, aka-uka va opa-singillar eng yaqin qarindoshlardir. Lekin uzoqroq qarindoshlar ham bor.

Tasavvur qiling, siz bir doiraning markazida turibsiz. Avval eng yaqin, keyin uzoqroq qarindoshlaringizni sanab chiqing.



Qarindoshlar bilan ko'rishganda vaqtni qanday o'tkazasiz?



1. Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
2. Bu ahil oilami? Qayerdan bildingiz?
3. Oila a'zolaringizga munosabatingiz qanday?
4. Oila davrasida o'zingizni qanday tutasiz?





Har birimizning o'z muloqot doiramiz bor. Keling, ular bilan tanishamiz.

Markazda – siz, atrofingizda esa turli odamlar. Ular orasida tanishlar ham, begonalar ham bor.



O'ylab ko'ring, bu muloqot doiralari kimlar kirishi mumkin? Quyida berilgan so'zlardan foydalaning.

**Foydalanish uchun so'zlar:** ota-ona, sotuvchi, bobo-buvi, aka-uka, opa-singil, yo'lovchi, amaki yoki tog'a, gaz nazoratchisi, amma-xola, do'stlar, qo'shni, sinfdosh, maktabdosh, ustoz, murabbiy, haydovchi, shifokor, usta, o't o'chiruvchi, begonalar.



“Men ishonadigan odamlar” mavzusida rasm chizing yoki kollaj tayyorlang.



Hayotda biz yaxshi tanimaydigan odamlar ham bor. Masalan, do'kondagi sotuvchi, bir-ikki yilda bir marta ishimiz tushib qoladigan tish shifokorini shaxsan tanimasligimiz mumkin. Lekin biz mutlaqo tanimaydigan, begona odamlar ham bor. Masalan, uyimizdagi quvurni tuzatish uchun kelgan usta yoki ko'chada oldimizdan chiqib, nimanidir so'rayotgan odamni tanimaymiz.

Begona, notanish odam bilan gaplashishda ehtiyot bo'lish kerak. Ba'zi odamlarning niyati yomon bo'lsa ham, o'zini yaxshi odam qilib ko'rsatishi, sizga biror shirinlik yoki sovg'a berib, o'zini yaqin tutishi mumkin.



O'zingiz, oilangiz va do'stlaringiz haqida begonalarga gapirib berishingiz mumkinmi? Nima uchun?



Ba'zi notanish odamlarning oldida o'zimizni yaxshi his qilamiz. Lekin ba'zi begona odamlarning oldida ishonchsizlik, qo'rquv yoki jahlini sezishimiz mumkin, shunda ularning oldidan tezroq nari ketish kerak.



Kimdir sizga g'alati, yoqimsiz muomala qilayotgan bo'lsa, "Yo'q!", "Bas qiling!" deyishingiz kerak. Bunday odam haqida kattalarga: ota-onangizga, o'qituvchilaringizga aytishingiz kerak.

Sizga teginishga hech kimning haqqi yo'q. Sizning ham hech kimga teginishga haqqingiz yo'q.

Kimdandir yordam so'raganingizda sizni bir martada tushunishmasa, sizni eshitmagunicha va yordam bermagunicha qayta-qayta aytaverish kerak. Uyalib, yashirish kerak emas, kattalardan yordam yoki maslahat so'rashdan tortinmang.



## Bu qoidalarni eslab qoling!

Uyda bir o'zim bo'lsam,



- eshikni faqat oila a'zolarim va yaqinlarimga ochaman.

Uyda bir o'zim qolganimda kimdir eshikni ochmoqchi bo'lsa,



- darhol ota-onamga qo'ng'iroq qilaman;
- "102" raqamiga qo'ng'iroq qilaman.

### Notanish erkaklar yoki ayollar bilan muloqot qilganda ehtiyot bo'lish kerak.

Notanish odam yonimga kelib, uni ota-onam yuborganini aytsa,



- **ishonmayman!** Ota-onam begona odamni yuborsa, menga aytib qo'ygan bo'lar edi.

Shubhali odam ko'chada meni to'xtatib, har xil savollar bera boshlarsa,



- **to'xtamayman!** Kattalardan so'ray qolsin.



**O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.**

Qoidalar kerak, chunki ...

Men ...ga yordam so'rab murojaat qilishim mumkin.

Agar ... men nima qilishni bilaman.

**Begona odam ko'chada  
menga nimadir bersa,**



- **olmayman!** Men notanish odamdan sovg'a, yegulik, shirinlik olmayman.

**Begona odam meni olib  
ketmoqchi bo'lsa,**



- jim turmayman, baland ovozda atrofdagilarni yordamga chaqiraman;
- begona mashinaga o'tirmayman.

**Ko'pqavatli uylarning  
yo'lagiga va liftiga**



- begonalar bilan kirmayman.

**Kimdir kasal bo'lib yoki biror  
joyi sinib, shifokor yordami kerak  
bo'lib qolsa-yu, yoningizda kattalar  
bo'lmasa,**



- tezda ota-onamga telefon qilaman;
- 103 raqamiga telefon qilib, "tez yordam" chaqiraman.

**Kimdir telefon yoki internet  
orqali mendan nimadir talab  
qilsa yoki meni qo'rqitsa,**



- **javob bermayman!** Shu zahoti ota-onamga yoki ustozimga aytaman.

**Yangi tanishim uyiga  
chaqirsa,**



- qayerga borsam ham, oldin ota-onamdan ruxsat so'rayman.